

## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

2025-yil yanvar-sentabr

- I. Yalpi hududiy mahsulot
- II. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
- III. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot
- IV. Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YaHM dagi ulushi
- V. Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

### I. Yalpi hududiy mahsulot





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 78 896,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 8,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Farg'ona viloyatining qo'shgan hissasi 6,1 % ga yetdi.

YaHM hajmi va o'sish (kamayish) sur'atlari, yanvar-sentabr



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi



Mavzuga doir havola:

[YaIM \(YaHM\) hajmi \(choraklik\)](#)

[YaIM \(YaHM\) o'sish sur'atlari \(choraklik\)](#)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>67 260,3</b>	<b>78 896,7</b>	<b>108,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	66 070,4	77 259,2	108,0
mahsulotlarga sof soliqlar	1 189,9	1 637,5	110,2
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>66 070,4</b>	<b>77 259,2</b>	<b>108,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>18 076,5</b>	<b>20 007,7</b>	<b>106,7</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>17 768,1</b>	<b>20 871,5</b>	<b>109,5</b>
sanoat	12 982,0	15 184,4	107,3
qurilish	4 786,1	5 687,1	115,6
<b>xizmatlar</b>	<b>30 225,8</b>	<b>36 380,0</b>	<b>107,9</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	10 274,5	12 301,7	109,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4 205,0	5 779,3	115,0
boshqa xizmat tarmoqlari	15 746,3	18 299,0	105,1



**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi, jamiga nisbatan % da**


	2024- yil	2025- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,2	97,9
mahsulotlarga sof soliqlar	1,8	2,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>27,4</b>	<b>25,9</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,8</b>	<b>27,1</b>
sanoat	19,6	19,7
qurilish	7,2	7,4
<b>xizmatlar</b>	<b>45,8</b>	<b>47,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	15,6	15,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,4	7,5
boshqa xizmat tarmoqlari	23,8	23,6

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,9 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,1 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 25,9 % ni, sanoat tarmog'i 19,7 % ni, qurilish 7,4 % ni va xizmatlar sohasi 47,0 % ni tashkil qildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 111,5 % va sanoatda – 109,0 % qayd etildi.



**Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot**

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Farg'ona viloyati aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 899,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,9 % ga yuqoridir.

**Aholi jon boshiga YaHM hajmi va o'sish (kamayish) sur'atlari, yanvar-sentabr**

	2024- yil		2025- yil	
	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da	Hajmi, ming so'm	O'sish sur'atlari, % da
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>29 124,8</b>	<b>104,4</b>	<b>34 483,9</b>	<b>105,6</b>
Farg'ona viloyati	16 434,8	104,7	18 899,8	105,9

### Kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHM dagi ulushi

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 55 509,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida - 47 762,3 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 71,8 % ni (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 72,3 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

#### 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning YAHM dagi ulushi, jamiga nisbatan %da



#### Yalpi hududiy mahsulot bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – hududning rivojlanishini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. YAHM iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ya'ni u ushbu hududning rezidentlari bo'lgan iqtisodiy birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymatini ifodalaydi.

YAHMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli MHTning ishlab chiqarish hisoblarini tuzish tamoyillariga asoslanadi va YAHMni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy narxlarda yalpi qo'shilgan qiymat va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali baholashni ko'zda tutadi.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini hisoblashni uslubiy tamoyillari butun iqtisodiyot bo'yicha YAIMni hisoblash tamoyillari bilan bir xil. Lekin YAIMning ayrim elementlari hududlar kesimida shakllantirilmaydi yoki hududlar darajasida ma'lumotlarning yo'qligi va cheklanganligi, shuningdek, ularni hisobga olishni o'ziga xos xususiyatlari sababli hududlar bo'yicha taqsimlanmaydi. Shu sababdan, ular O'zbekiston Respublikasi bo'yicha taqsimlanmagan qism sifatida hisob-kitoblarga kiritiladi.

Aholi jon boshiga YAIM (YAHM) muayyan davrda joriy narxlardagi YAIM (YAHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulotni baholash uchun ishlab chiqarish usulida hisoblangan yalpi ichki (hududiy) mahsulot hajmi, shuningdek, muayyan davrda mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soni bo'yicha demografiya va mehnat statistikasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

#### Havolalar

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash bo'yicha uslubiy nizom

Kuzatilmaydigan iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha uslubiy nizom

Yalpi hududiy mahsulot

**Mas'ul:**  
Statistika ishlarini tashkil etish va  
ma'lumotlarni tarqatish bo'limi

**Manzil:** 150100, Farg'ona shahar,  
Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy  
**Pochta:** farstat@farstat.uz  
Tel: 73 241-98-71 (4005)